

10. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini ekonometrik modellashirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(6), 245-250.

O'ZBEKISTONDA TURISTIK INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Beginqulov Javohirbek Jo'raqul o'g'li

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

javohirbekbeginqulov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida O'zbekistonda turizm infratuzilmasining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha ilg'or tajribalar tahlil qilinadi. Mehmonxona, transport, ovqatlanish va raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi, xizmat ko'rsatish sifati asosiy muammolar sifatida ko'rib chiqildi. Mahalliy va xalqaro tahlillar natijasida olingan muammolarni bartaraf etish uchun sohada nazariy-ilmiy yondashuvlarni talab etadi. Shu jihatdan mazkur maqola O'zbekistonda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, rivojlangan davlatlar tajribalari va tahlillar asosida samarali bo'lgan ilmiy uslubiy xulosa hamda yechimlarni o'z ichiga olgan.

Kalit so'zlar: turizm, turistik infratuzilma, turistik resurs, transport, mehmonxona, ovqatlanish, xizmat ko'rsatish, savdo, ko'ngilochar xizmatlar, axborot texnologiyalari.

Kirish: O'zbekiston o'zining boy turistik salohiyati va resurslari, jumladan, tarixiy-me'moriy yodgorliklari, ekologik tabiiy qadamjolari, arxeologik topilma boyliklari va jadal iqtisodiy o'sishi hamda shiddatli zamonaviy rivojlanishi bilan jahon hamjamiyatini tobora o'ziga jalb etmoqda. YUNESKO ning "Butun jahon merosi" ro'yxatiga O'zbekistonning yirik 4 shahri va 1 ta tarixiy yo'lagi asosiy madaniy obyektlar sifatida kiritilgan. Shuningdek, Respublikada jami 8000 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, shahar va tumanlaridagi 200 dan ortiq tarixiy-me'moriy yodgorliklar YUNESKO ro'yxatiga turli mezonlar bo'yicha kiritilgan. Darhaqiqat, shaharlarimizda joylashgan ko'plab yodgorliklar va me'moriy obidalar yurtimiz tarixida muhim rol o'ynagan o'tmish zamonlarini o'zida aks ettiradi. Bundan tashqari har bir viloyatimizning o'ziga xos ekologik sharoiti tufayli tabiat kashf etgan manzaralari va so'lim go'shalarni ta'riflashga so'z o'z. Ammo mamlakatimizda yuqoridagi turizm salohiyatidan keng foydalanish uchun to'siq bo'layotgan infratuzilma bilan bog'liq muammolar hali to'raligicha o'z yechimini topgani yo'q.

Asosiy qism: Hozirda har qanday sayyoh o'z yo'nalishida turistik obyektlarga umumiy xarajatlarning juda oz qismini sarflaydi. Asosiy turizm xarajatlari transport, turar joy, ovqatlanish, savdo va ko'ngil ochar xizmatlar kabi turistik infratuzilma obyektlariga sarflanadi. Buni quyidagi statistik tahlillardan ham bilish mumkin. Jahon Bankining "Turizmning iqtisodiyotdagi ulushi" nashrida Deloitte konsalting firmasi hisob-kitoblariga ko'ra, Avstraliyada Airbnb'ning sayyohlari o'z xarajatlarining 22 foizi turar joyga, 27 foizi oziq-ovqatga, 17 foizi xaridlarga va 12 foizi dam olish va ko'ngilochar tadbirlar va 12 foizini transportga sarflanishini aniqladilar.[1] Shuningdek, xalqaro iqtisodchilarning tadqiqotlarida turist xarajatlarning turlicha usullarda tahlillarini o'rganganda quyidagicha xulosaga kelindi. O'rtacha hisobda turistlar turarjoy uchun jami xarajatlarning 35 % ini, ovqatlanish uchun 25 %, transport uchun 15 %, savdoga 20 % va boshqa xarajatlarga 5 % qismini sarf qiladi.[2] Shuning uchun ham mamlakatimizda turistik infratuzilmani yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsad kelgan turistning bekamu ko'st dam olishini ta'minlash, pirovardida turistlar oqimi kuchaytirib yuqori foyda olishdir.

Mamlakatimizda hukumat tomonidan turizm sohasini tubdan modernizatsiya qilish, transport va mehmonxona infratuzilmasini yaxshilash, shuningdek, turizm sohasiga oid bo'lgan normativ qonunchilik bazasini rivojlantirish va takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Toshkent shahri hamda viloyat markazlarida shaharsozlik va turistik infratuzilmasini yangilash va rivojlantirish ishlari davom ettirilmoqda. Tashkent City, Silk Road Samarkand, Abadiy Buxoro, Arda Xiva kabilar yorqin misol bo'la oladi.

Shuningdek, yangi qurilayotgan mehmonxonalar, yaratilayotgan transport xizmatlari, savdo va ovqatlanish shaxobchalari va ko'ngilochar turistik obyektlar shular jumlasidandir.

So'nggi yillardagi o'zgarishlar va qilinayotgan ishlar hamda xalqaro pandemiyadan keyingi tiklanish natijasida turizm sohasidagi raqamlarda ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Turistik oqim tahliliga ko'ra, 2024-yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni jami 7957,2 ming nafarni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan ularning soni 20,1 % ga oshgan.

2024 yilning yanvar-dekabr oylarida MDH davlatlaridan respublikamizga tashrif buyurgan fuqarolar soni 2023 yilning shu davriga nisbatan 17,6 % ga ko'paydi, boshqa mamlakatlardan kelganlar soni esa 49,4 % ga oshdi. Jumladan, 2024 yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga MDH davlatlaridan 7 184,2 ming kishi tashrif buyurib, bu jami kelganlarning 90,3 % ini tashkil etdi, boshqa davlatlardan – 773,0 ming kishi (9,7 %) tashrif buyurgan.

Tahlildan ko'rishimiz mumkinki, asosiy xorijdan keladigan turistlar oqimining katta ulushi qo'shni mamlakatlar hisobiga to'g'ri keladi. Bu tendensiyaning safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanish holati quyidagicha ko'rinishda aks etadi: 2024 yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari safar maqsadini qarindoshlarni yo'qlash uchun deb belgilaganlar soni 6 105,3 ming kishiga (jami kelganlarning 76,7 % i), bo'sh vaqt va dam olish uchun – 1 184,4 ming kishi (14,9 %)ga, xizmat safari uchun – 338,5 ming kishi (4,3 %), tijorat maqsadida kelganlar – 199,0 ming kishi (2,5 %)ga, davolanish uchun – 104,9 ming kishi (1,3 %)ga, to'g'ri kelgan. Statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qarindoshlarni yo'qlash maqsadida kelgan xorijiy fuqarolar soni salmoqli ulushni egallab turibdi. Bu ulush ham asosan MDH mamlakatlari, jumladan qo'shni Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston davlatlariga to'g'ri keladi. Iqtisodiy jihatdan olib qarasak mazkur turizm turi yuqori qiymat yaratmaydi. Turizm iqtisodiyotida kattaroq foyda va valyuta oqimi dam olish va bo'sh vaqtni o'tkazish maqsadida kelgan turistlar hisobiga to'g'ri keladi. Bu maqsadda keladigan turistlar ulushining ham kamligini mamlakatimiz turistik infratuzilmasida hamon bir qator muammolar borligi bilan ifodalash mumkin.

Mamlakatda mehmonxona va turar joylar soni oshib borayotgan bo'lsa-da, ularning sifati va xizmat ko'rsatish darajasi xalqaro standartlarga to'liq mos kelmasligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, chekka hududlarda sifatli turar joylar yetishmasligi sayyohlar oqimini cheklaydi. Transport infratuzilmasi ham turizm rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning asosiy turistik shaharlarini bog'lovchi yo'llar va temir yo'l tarmoqlari mavjud bo'lsa-da, ularning sifati va xizmat ko'rsatish darajasi yaxshilanishi zarur. Xalqaro aeroportlarning zamonaviylashtirilishi va ichki aviaqatnovlarning ko'paytirilishi ham dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni turizm sohasiga joriy etish darajasi pastligi sayyohlar uchun qulayliklarni cheklaydi. Onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar va boshqa raqamli xizmatlarning rivojlanishi sayyohlar uchun muhim ahamiyatga ega.

O'tgan yili Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) ichki turizm bo'yicha so'rov o'tkazdi. Respondentlarning yarmidan ko'pi oilalari bilan sayohat qilishni afzal ko'rishlarini aytdi. So'rov doirasida O'zbekiston bo'ylab sayohat qilishda turli omillardan qoniqish darajasi baholandi (5 balli tizimda). Uning asosida ekspertlar muammolarning 3 guruhini ularning ahamiyatiga ko'ra aniqladi:

I. Eng dolzarb omillar: yo'llarning sifati (bu omilni respondentlarning 74,8 foizi qayd etgan), mehmonxonada narxlari (71 foiz) va transport (69,3 foiz), suv ta'minotidan qoniqish (69,3 foiz), internetga ulanishdan qoniqish (68,8%), transport xarajatlari (67,8%) va sanitariya punktlari mavjudligi (66,6%).

II. O'rta ahamiyatga ega bo'lgan omillar: turistik xaritalar va ma'lumotlarning mavjudligi (65,3%), transport topish (64,1%), umumiy ovqatlanish joylarida gigiyena va sanitariya (62,5%), elektr energiyasi ta'minoti (61,5%)

III. Boshqa omillar: Internetdan diqqatga sazovor joylar haqida ma'lumot topish (60,1%), mehmonxona xizmati (57,7%), mehmonxona topish (57,2%) va ovqatlanish joylarini topish (50%).[4]

Albatta, O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish dasturi doirasida yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida turizm sohasini kengaytirish va takomillashtirish bo'yicha katta sa'y-harakatlar amalga oshirildi: chegara tartib-qoidalari va viza rejimi soddalashtirildi, natijada 100 ga yaqin davlat fuqarolariga O'zbekistonga yengil kirish imkoniyati yaratildi, ichki turizmi rivojlantirish uchun "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil", "Yoshlar turizm haftaligi" kabi dasturlar amalga oshirildi, transport sohasida yangi yo'nalishlar ochildi, jumladan shaharlararo avtobuslar qatnovi va temiryo'l liniyalari kengaytirildi, 2023-yilda 1387 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 93,41% i mehmonxonalar, 1,4%i motellar va 5,2%i boshqalarga to'g'ri keldi. Turistik firma va tashkilotlar soni 2023-yil 578 ta, aeroportlar soni esa 11 taga yetkazildi. Shunday bo'lsa-da, ba'zi turistik infratuzilma ob'ektlari va xizmatlari, ayniqsa, sayyohlarni jalb qilish yoki ularni takroriy tashrif buyuruvchilarga aylanishga undashdagi rolini hisobga olgan holda, hukumat yoki xususiy sektor tomonidan chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Butunjahon sayyohlik tashkiloti tomonidan 2024-yilda o'tkazilgan so'rovnoma "O'zbekiston turizm iqtisodiyoti" tadqiqoti respondentlari quyidagi noqulayliklarni qayd etishgan[5]:

- sayohat uchun transport tizimining yomonligi;
- to'lov tizimlarining yaxshi ishlamasligi;
- differensiallashgan mehmonxonalar kamligi;
- ovqatlanish joylarining sanitariyaga rioya qilmasligi;
- tibbiy xizmatlarning barcha joyda mavjud emasligi;
- axborot yoki texnologiyalar bilan bog'liq muammolar.

Transport tizimidagi muammolar eng muhim kamchiliklardan biri hisoblanadi. Buni ichki turizm bo'yicha so'rovnomaning 2024-yilgi statistik holatdan ham ko'rish mumkin: respondentlarning 56,8 foizi shaxsiy avtomobilda, 17,3 foizi poyezdda, 9,8 foiz taksida va 6,9 foiz avtobusda sayohatni amalga oshirishlarini bildirishgan. Kamchiliklar sifatida aviaparvozlarning kamligi, narxlarning qimmatligi, poyezdlarda chipta va sharoit muammolari va eng asosiysi yo'llarning talabga javob bermasligini kiritish mumkin. Bundan tashqari to'lov tizimidagi muammolar (avaibiletga to'lov tizimida xatoliklar, xalqaro pul o'tkazmalaridagi cheklovlar), internet bilan bog'liq muammolar (Wi-Fi tarmog'iga kirishning kamligi va tezlikning pastligi), turistik diqqatga sazovor joylardagi yo'l belgilari va turistik ma'lumotlarning ingliz tilidagi tarjimasining cheklanganligi, elektr ta'minotidagi uzilishlar keltirilgan.

Bundan tashqari, Silk Road New Observation News agentligi tomonidan o'tkazilgan mahalliy sayyohlik gid bilan suhbatda ta'kidlanganidek, oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya-gigena talablariga javob bermasligi, chekka hududlarda tez ordam xizmatidagi kamchiliklar, sifatli, toza, zamonaviy jamoat hojatxonalari yo'qligi haqidagi kamchiliklar ham tilga olingan.

Rivojlangan davlatlar turizm infratuzilmasini rivojlantirishda bir qator muvaffaqiyatli tajribalarni amalga oshirgan. Masalan, Ispaniya, Fransiya va Italiya kabi davlatlar turizm sohasida yetakchi o'rinlarni egallab, infratuzilmani rivojlantirish orqali katta yutuqlarga erishgan. Ispaniya turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligiga katta e'tibor qaratgan. Mehmonxonalar, transport tarmoqlari va boshqa turistik obyektlarning zamonaviylashtirilishi sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qilgan. Fransiya madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan samarali foydalanish orqali turizmni rivojlantirgan. Muzeylar, tarixiy joylar va boshqa madaniy obyektlarga ularga zarar yetkazmasdan investitsiyalar kiritish sayyohlar uchun jozibadorlikni oshirgan. Bundan tashqari, Fransiya barcha shaharlarni bog'laydigan TGV tezyurar temiryo'l tarmog'i sayohatchilar uchun eng yaxshi transport sifatida qayd etilgan. Italiya gastronomik turizmni rivojlantirish orqali sayyohlarni jalb qilgan. Mahalliy

oshxonada milliy taomlar va vino turlarini tashkil etish, shuningdek, fermadan dasturxonga tamoyili sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otgan. Dubaydagi Burj Xalifa nafaqat diqqatga sazovor joydir balki, joylashtirish xizmatini ham taklif qiluvchi yirik kompleks. AQShning Florida shtatidagi Disney World majmuasi turli xil ko'ngilochar imkoniyatlarni taqdim etuvchi dam olish maskanining yorqin namunasidir, unda istirohat bog'laridan tortib akvaparklargacha mavjud, shuning uchun ham barcha yosh guruhlari bo'yicha sayyohlarni qamrab olish imkoniga ega.

Xulosa:Yuqorida qayd etilgan muammolar va xalqaro tajribalarga tayangan holda O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni berish mumkin:

- ✓ Mehmonxona va turarjoy obyektlarida byudjetdan-hashamatgacha tamoyilida xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlash;
- ✓ Transport xizmatida onlayn to'lov tizimlarini rivojlantirish, raqobat muhitini yaratish, yo'l infratuzilmasini yaxshilash;
- ✓ Ko'ngilochar xizmatlarni tashkil etishda yirik majmualardan andoza olish, park va bog'larni muzeylar atrofiga qurish;
- ✓ Mahalliy va xalqaro sayyohlar uchun qo'llab-quvvatlash hamda ma'lumot markazlarini, zarur bo'lganda shoshilinch xizmatlar bilan ta'minlashni tashkil etish;
- ✓ Ovqatlantirish xizmatlarida standartlarga rioya etilishi ta'minlash va nazorat qilish, oziq-ovqat sifati va xavfsizligini ta'minlash, gastonomik parhez mahsulotlar taklifini kengaytirish, shuningdek milliy va mahalliy oshxonalar brendini keng targ'ib qilish;
- ✓ Qayd etish kerakki, hozirda dunyoda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan inklyuziv turizmni tashkil etishga katta e'tibor qaratish lozim.

Quvonarlisi, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar kelajakda albatta yuqorida qayd etilgan muammolarga barham beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentyabrdagi "Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 582-sonli Qaroriga muvofiq quyidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

❖ Turizmning yangi turlarini joriy etishga, shu jumladan, obyektlar ro'yxatini shakllantirish, ularga kirish-chiqish tartibini ishlab chiqish, ularda pulli va bepul ko'rsatiladigan xizmatlarni belgilash, tushayotgan mablag'lardan samarali foydalanish;

❖ Aeroport, temir yo'l vokzallari, avtovokzallar, tarixiy, madaniy, ko'ngilochar, ovqatlanish va shu kabi joylar hamda ularga yetib borish marshrutlari haqida ma'lumot taqdim etish, aholi va turistlarning sayohat qilish muddati va qiziqishidan kelib chiqib, sayohat rejasini tuzib berish va matritsali shtrix kod (QR-kod) orqali mobil qurilmasiga o'tkazib olish imkoniyatini yaratish, turistlar oqimi yuqori bo'lgan davlatlar tillarida axborot berish hamda tegishli hududning xaritasi namoyish etib borish imkonini beruvchi "Tourist map" interaktiv portalini ishga tushirish va bepul Wi-Fi zonalari tashkil etish;

❖ Turistlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, transport-logistika sohasini va biznes jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarini ko'rsatuvchi mahalliy va xorijiy kompaniyalar ("Hertz", "Avis", "Sixt" kabi) faoliyatini mamlakatning aeroport va temir yo'l vokzallari hududlarida yo'lga qo'yish uchun qulay sharoitlar yaratish;

❖ Xalqaro onlayn to'lov kompaniyalari ("Paypal", "Alipay", "UniPay", "Apple Pay", "Google Pay" kabi) bilan muzokara o'tkazib ushbu vositalarni O'zbekistondagi to'lov tizimlari va bank xizmatlariga ulashni yo'lga qo'yish.[6]

Xulosa o'rnida, shuni aytish mumkinki, mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish nafaqat xorijiy turistlar uchun qulay sharoit yaratish, balki mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va yuqori samaradorlikka erishish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy va barqaror bo'lgan infratuzilma nafaqat turizm sohasini rivojlantiradi, balki hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy tadbirkorlikni keng qo'llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish orqali YaIMga katta hissa qo'shadi. Shu bilan birga, infratuzilmaning rivoji jamiyatimizning farovonligini oshirish va ularning madaniy merosini asrashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The World Bank Group. Tourism and the Sharing Economy: Policy & Potential of Sustainable Peer-to-Peer Accommodation. (2018). Page 23.
2. Pai WT, Phan KT, Pham CV, Lee JM, Hsieh CJ. (2024) Analyzing tourist expenditures incurred on long-, medium-, and short-haul trips to Taiwan. Annals of Tourism Research Empirical Insights. 5(2).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil yanvar-dekabr davri statistik axborotnomasi.
4. https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/local_tourism
5. Tourism development in Uzbekistan — challenges and opportunities. Special policy brief by Caspian Policy Center. 2019/11. Page 8-9.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentyabrdagi "Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 582-sonli Qarori.

MEHMONDO'STLIK SANOATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION MARKETINGNING ROLI

Azizova Sug'diyona Baxtiyor qizi

O'zXIA magistranti

e-mail:sugdiyonabaxtiyarovna23@gmail

Annotatsiya: Ushbu maqola mehmondo'stlik sanoatida raqamli texnologiyalar va innovatsion marketingning ahamiyatini tahlil qiladi. So'nggi yillarda mehmondo'stlik sohasida raqamli transformatsiya va marketing strategiyalarining joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyatlarini yaratdi. Maqolada jahonda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, sohadagi mavjud muammolar va ularning yechimlari ko'rib chiqilgan. Raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash va innovatsion marketing yondashuvlarini tatbiq etish orqali mehmondo'stlik sanoatining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida tahlil olib borilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, innovatsion marketing, mehmondo'stlik sanoati, shaxsiylashtirilgan xizmatlar, raqobatbardoshlik, Big Data, sun'iy intellekt, turizm sanoati

Kirish: Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mehmondo'stlik sanoati jadal rivojlanib, innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. An'anaviy xizmat ko'rsatish uslublari o'z o'rnini raqamli texnologiyalar asosidagi zamonaviy strategiyalarga bo'shatib bermoqda. Bugungi kunda mehmondo'stlik sohasi mijozlar ehtiyojlarini chuqur tushunish, ularga qulaylik yaratish va sodiqlikni oshirish uchun sun'iy intellekt, big data, blokcheyn, virtual va kengaytirilgan reallik hamda tarmoqlararo integratsiya kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanmoqda.

Raqamli texnologiyalar mehmondo'stlik sanoatida nafaqat xizmatlar sifatini oshirish, balki samaradorlikni yaxshilash va xarajatlarni optimallashtirish imkonini ham beradi. Shuningdek, innovatsion marketing strategiyalari, xususan, nishonli reklama, ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlar bilan bevosita aloqalar o'rnatish hamda shaxsiylashtirilgan takliflarni ilgari surish mehmonxonalar, restoranlar va sayyohlik kompaniyalari uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqolada mehmondo'stlik sanoatida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, innovatsion marketing strategiyalarining o'rni va ularning sanoatning rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot dolzarbligi shundaki, raqamli texnologiyalar va marketing innovatsiyalari mehmondo'stlik sohasining global bozorda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu mavzuni chuqur o'rganish va sohaga oid ilg'or tajribalarni tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: So'nggi yillarda jahonda mehmondo'stlik sanoatida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Global pandemiya va raqamli transformatsiya jarayonlari bu sohaga yangi talablar va imkoniyatlar keltirdi. Internetning keng tarqalishi, mobil ilovalar va onlayn bronlash tizimlarining rivojlanishi mehmondo'stlik sanoatining strukturasi va xizmat ko'rsatish shakllarini tubdan